*Адолат ҳар ишда ҳамроҳимиз ва дастуримиз бўлсин!*

# ИНСОН ва ҚОНУН

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ АДЛИЯ ВАЗИРЛИГИНИНГ ҲУҚУҚИЙ ГАЗЕТАСИ

● 2008 йил 4 март ● сешанба ● № 10 (569) ● e-mail: inson_va_qonun@mail.ru

## БАҲОР – БАХТ ВА БЕҒУБОРЛИК ТИМСОЛИ




### ЭЪТИБОР ва ЭЪТИРОФ

**1995 йил 2 март**

*Президентимизнинг "Ўзбекистон Республикасининг давлат ва ижтимоий қурилишида хотин-қизларнинг ролини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони эълон қилинди.*

***

**1999 йил 17 март**

*Президентимиз "Хотин-қизларнинг ижтимоий муҳофазасини кучайтиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги Фармонига имзо чекди.*

***

**1999 йил 14 апрель**

*"Хотин-қизларга доир қўшимча имтиёзлар тўғрисида"ги Қонун қабул қилинди.*

***

**2001 йил 5 февраль**

*Вазирлар Маҳкамаси "Она ва бола" Давлат дастури тўғрисида"ги қарорни қабул қилди.*

***

**2002 йил 25 январь**

*Вазирлар Маҳкамаси "Аёллар ва ўсиб келаётган авлод соғлиғини мустаҳкамлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" қарор қабул қилди.*

***

**2004 йил 25 май**

*Президентимизнинг "Ўзбекистон хотин-қизлар қўмитаси фаолиятини қўллаб-қувватлаш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги Фармони эълон қилинди.*

TURON BANK

● Эҳтиром

## АЁЛ, ОИЛА ВА ЖАМИЯТ

**Аёл, Оила, Жамият сўзлари нақадар оҳангдор, жарангдор, уйғун, муштарак. Аёл — гўзаллик, оила — садоқат, жамият — эзгулик тимсолига айлансагина, бу уч лутфнинг бирлиги тараққиёт рамзи бўла олади.**

**Аёл гўзаллигида унинг вафоси, латофати, назокати ва нафосати мужассамлашган. Шу боис ҳам аёлни эъзозлаш шарқона маданий меросларимиз сирасига кирадиган қадриятларимиздан бири ҳисобланади. Бу қадриятлар илдизи инсоният тарихининг бошланишига бориб тақалиши, шубҳасиз.**

Ўзбек аёлининг ижтимоий жиҳатдан фаоллашуви халқимизнинг кўҳна тарихи, сийрати, маънавий-ахлоқий олами эса миллий қадриятларимиз билан чамбарчас.

Соҳибқирон Амир Темур бобомиз ҳам аёлларга нисбатан юксак эътибор ва иззат-икром, эҳтирому эъзоз билан қараган. Самарқандда юртимизга кўрк бағишлаб турган "Боғи Дилкушо" Сарой Мулкхоним, "Боғи Беҳишт" Туман Оғобегим, "Боғи Жаҳоннамо" эса Таваккал Оғо бегим ҳурматига барпо этилганлиги ҳам аёлга эҳтиром намунасидир.

Қолаверса, аждодларимизнинг аёлларни эъзозлаш, уларга оила нури, жамиятнинг муҳим суянчи деб қараши, улуғ аждодларимиз томонидан эъзозланганини Шоҳруҳ Мирзонинг хотини Гавҳаршодбегим, Умар Шайх Мирзонинг қизи Хонзодабегим, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг қизи — Гулбаданбегим, Шоҳ Жаҳонгирнинг хотини — Нуржаҳон (Меҳринисо) бегим, Шоҳ Жаҳоннинг хотини — Аржуманд бону (Мумтоз Маҳал) бегим, Шоҳ Жаҳоннинг қизи — Жаҳоноробегим, Аврангзеб Оламгирнинг қизи — Зебуннисо бегим ва бошқа аёллар тимсолида ҳам кўрамиз.

Асрларки бу эзгу ҳақиқат бизнинг юртимизда тантана қилиб келмоқда. Истиқлол йилларида аёл, оила, жамият тушунчаларининг муштараклигига алоҳида эътибор қаратилди.

> *"Оилани ҳам, жамиятимизни ҳам бирлаштириб, унга файзу баракот киритадиган, хонадонларимизни меҳр-муҳаббат, нафосат, эзгулик нури билан мунаввар қиладиган зотлар ҳам аслида оналаримиз, мунис опа-сингилларимиздир".*
>
> **И.КАРИМОВ**

"Онани эъзозлаш — бизнинг халқимиз учун олий қадрият даражасига кўтарилган фазилат. Чунки, аёлларни қанча улуғласак, ҳаётимизнинг чироғи, умримизнинг гули деб эъзозласак, демакки, оиламизни, Ватанимизни эъзозлаган бўламиз", дея эътироф этган Юртбошимиз Ватанимиз мустақиллигининг илк кунларидан бошлаб жамиятда аёллар мавқеини ошириш, оила мустаҳкамлиги ва барқарорлигини таъминлаш, соғлом ва баркамол авлодни тарбиялашни жамият тараққиётининг муҳим мезони сифатида белгилаб берган эдилар.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясида оила учун алоҳида боб ажратилганлиги, Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси қабул қилинганлиги оила жамиятнинг асосий таянчи сифатида эътироф этилганлигидан далолат бўлса, Ўзбекистон Республикасининг **"Хотин-қизларга қўшимча имтиёзлар тўғрисида"**ги Қонуни, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1995 йил 2 мартдаги **"Ўзбекистон Республикаси давлат ва ижтимоий қурилишида хотин-қизлар ролини ошириш тўғрисида"**ги, 1999 йил 17 мартдаги **"Хотин-қизларнинг ижтимоий муҳофазасини кучайтиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"**ги, 2002 йил 25 январдаги **"Аҳолининг ҳимояга муҳтож қатламларини аниқ йўналтирилган тарзда қўллаб-қувватлашни кучайтириш тўғрисида"**ги, 2004 йил 25 майдаги **"Ўзбекистон Хотин-қизлар қўмитаси фаолиятини қўллаб-қувватлаш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисидаги"**ги, 2007 йил 18 майдаги **"Ёш оилаларни моддий ва маънавий қўллаб-қувватлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"**ги фармонлари хотин-қизларни ижтимоий-ҳуқуқий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш, оила, оналик ва болаликни муҳофаза қилиш, оилада, жамият ва давлат қурилишида уларнинг ролини кучайтириш масалаларини қамраб олди.

Хотин-қизларнинг жамият ҳаётидаги ролини белгилашда уларнинг меҳнат қилиш ҳуқуқлари, уларга тегишли меҳнат шароитларини яратиш, иш ҳақи, дам олиш ва меҳнат таътиллари бериш билан боғлиқ масалалар муҳим аҳамият касб этади. Шу сабабли Ўзбекистон Республикаси Меҳнат кодексида аёллар учун қатор ҳуқуқ ва имтиёзлар мустаҳкамлаб қўйилган. Аёлларни меҳнат шароити ноқулай ишларга, шунингдек, ер ости ишларига жалб қилиш тақиқланган. Айниқса, ҳомиладор ва ёш болали аёлларга қулай шароитлар ва кенг имкониятлар яратиб берилган.

Хуллас, ўзбек аёлларининг мамлакат ижтимоий-сиёсий ҳаётида тутган ўрни йил сайин кенгайиб бормоқда. Айниқса, аёллар орасидан мамлакат миқёсидаги соҳа раҳбарлари, фан докторлари етишиб чиқаётганлиги, улар давлат бошқарувида, суд-ҳуқуқ соҳасида, Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ва Сенатида фаолият кўрсатаётганлиги мамлакатимизда аёлларга кўрсатилаётган ғамхўрликнинг натижасидан далолатдир.

**Абдукамол РАҲМОНОВ,**
**Адлия вазирлиги бошқарма бошлиғи**

● Мактуб

## МИННАТДОРМАН

**Ассалому алайкум ҳурматли "Инсон ва қонун" таҳририяти ходимлари!**

Мен яшайдиган жой туман марказидан 20 километр узоқликда жойлашган. Ишимни тиклаш учун 1 ой мобайнида туман марказига қатнадим. Лекин ҳал бўлмади. Илож қолмагач, сизларга ариза ёзишга мажбур бўлдим.

Мен бир ой югуриб бажара олмаган ишни таҳририят тезда бажарди. Тўлиқ иш ставкамни тиклаб берганликларингиз учун сизлардан мингдан-минг розиман.

Қонунларимиз ўз кучини кўрсатаётганлигидан ғоятда шодман. Таҳририят ходимларининг ишларига, айниқса, инсон ҳуқуқлари ҳимоясида каттадан-катта муваффақиятлар тилайман.

**Салом билан**
**Комила ФАРМОНОВА,**
**Самарқанд вилояти, Пахтачи тумани, 39-мактаб лаборанти**

## Тизим тадбирлари

### КОНСТИТУЦИЯВИЙ СУДНИНГ ЎРНИ

**Адлия вазирлигида Ўзбекистон Республикаси Конституциявий суди раиси вазифасини бажарувчи, юридик фанлари номзоди Бахтиёр Мирбобоев билан учрашув бўлиб ўтди. "Суд тизимида Конституциявий суднинг ўрни" мавзуида ўтказилган мазкур учрашув-мулоқотда Конституциявий суднинг бугунги фаолияти, ислоҳотлар жараёнида унинг фаол иштироки ҳақида сўз юритилди.**



Б.Мирбобоев Конституциявий суднинг Бош Қомусимиз бўлган Конституция ва қонунларда белгиланган ваколатлари хусусида батафсил тўхталди. Конституциявий судга масала киритиш ва уни ўрганиб чиқиш тартиби, шунингдек, ўтган 2007 йил давомида келиб тушган мурожаатлар тўғрисида ҳам сўзлаб берди.

Қизғин мулоқот тарзида ўтган учрашувда йиғилганлар ўзларини қизиқтирган саволларга жавоб олишди.

**Дилором МАТКАРИМОВА,**
**"Инсон ва қонун" мухбири**

### ҒОЛИБ АНИҚЛАНДИ

Ёшларни Конституцияга, давлатга ва ҳукумат қарорларига ҳурмат руҳида тарбиялаш, жамиятда қонуннинг устувор бўлишига эришишда фаол қатнашиш, ўз ҳуқуқларини тўла англаб етишларига кўмаклашиш, ўсиб келаётган ёш авлоднинг ҳуқуқий билимларини мустаҳкамлаш, уларнинг динга бўлган муносабатини республика қонунлари доирасида шакллантиришга кўмаклашиш ҳамда иқтидорли ҳуқуқшунос кадрларни тайёрлаш мақсадида "Сиз қонунни биласизми?" кўрик-танловининг Тошкент шаҳар босқичи ўтказилди.



Республика миқёсида ўтказиладиган кўрик-танловга Юнусобод туманидаги 17-мактабнинг "Фемида" жамоаси йўлланма олди.

**Аброр БЕРДИЕВ,**
**Тошкент шаҳар адлия бошқармаси ходими**

### ҚОНУН УСТУВОРЛИГИ ТАЪМИНЛАНАДИ

**Андижон вилояти адлия бошқармасида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2007 йил 24 августдаги "Давлат ва хўжалик бошқаруви органлари, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари, давлат корхоналари, муассасалари ва ташкилотлари фаолиятини ҳуқуқий таъминлаш даражасини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори ижроси юзасидан семинар-машғулот бўлиб ўтди.**

Ушбу тадбирда мазкур қарор билан тасдиқланган 2 та низом, ушбу низомларнинг "Ўзбекистон Республикасининг давлат бошқаруви органлари ва корхоналаридаги юридик хизмат тўғрисида"ги Низомдан фарқи, янги қабул қилинган қарор юридик хизмат кўмагида жамиятимиз фуқароларининг ҳуқуқий онги ва маданияти юксалиб боришига, давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари ҳамда хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятида қонун устуворлиги таъминланишига хизмат қилиши борасида сўз юритилди.

Тадбирда адлия бошқармаси ва вилоятда фаолият кўрсатаётган юридик хизмат ходимлари иштирок этдилар.

**Камолиддин ЖАЛОЛИДДИНОВ,**
**Андижон вилояти адлия бошқармаси ходими**

### ЁШ ОИЛАЛАР ФАРОВОНЛИГИ ЙЎЛИДА

**Президентимизнинг 2005 йил 16 февралдаги "Уй-жой қурилиши ва уй-жой бозорини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори ёш оилаларнинг уй-жойларга бўлган талаб-эҳтиёжларини мумкин қадар тўлиқ таъминлашга, уй-жой қурилишини жойларда ривожлантириш ишларига кенг йўл очиб бермоқда.**

Қарор ижроси юзасидан Зарафшон шаҳрида ҳам салмоқли ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, узоқ муддатли имтиёзли кредитлар тизими кенг миқёсда жорий этилмоқда. Биргина ўтган йилда "Миллий банк"нинг Зарафшон шаҳар бўлими, "Ипотека банк"и, "Асака банк"лари томонидан 369 нафар ёш оилага уй-жойлар, уй-жиҳозлари сотиб олишлари учун ипотека кредитлари берилиб, Зарафшон шаҳар Давлат нотариал идораси томонидан Ипотека шартномалари расмийлаштирилди.

Аҳолининг кенг қатламларини, айниқса, ёш авлодни жисмоний ва маънавий жиҳатдан соғлом ўстириш, ёш оилаларни ижтимоий-иқтисодий ҳимоя қилиш, уларнинг турмуш даражасини юксалтириш йўлида саъй-ҳаракатларимиз бу йил янада кенгаяди.

**Исомиддин МИРЗАЕВ,**
**Зарафшон шаҳар Давлат нотариал идораси нотариуси**

### МИНГБУЛОҚДА СЕМИНАР-КЕНГАШ

**Адлия вазирлиги томонидан ишлаб чиқилган "2008 йил давомида бошқа идоралар вакилларини жалб қилган ҳолда аҳоли ўртасида ўтказиладиган ҳуқуқий тарғибот тадбирлари режаси" асосида Наманган вилоятида семинар-кенгашлар, учрашув ва жонли мулоқотлар мунтазам равишда ўтказиб келинмоқда.**

Вилоят адлия бошқармасининг жамоат бирлашмалари ва диний ташкилотлар бўлими томонидан уюштирилган навбатдаги семинар-кенгаш Мингбулоқ туманида бўлиб ўтди.

У жорий йилда адлия идораларидан рўйхатдан ўтган ёшлар масалалари билан шуғулланувчи нодавлат нотижорат ташкилотларнинг вазифаларига бағишланди.

**Абдуҳошим МАДАТОВ,**
**"Инсон ва қонун" мухбири**

**Ислом КАРИМОВ:**

***Аёлларимизнинг жамиятдаги ўрни ва нуфузи, ҳурмат ва эътиборини ошириш, уларнинг қонуний ҳуқуқ ва манфаатларини таъминлаш масаласи юртимизда олиб борилаётган давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айланган...***



**Қурбонбиби СУЛТОНОВА, Ўзбекистон Республикаси ИИВ Тергов Бош бошқармаси ўта муҳим ишлар бўйича катта терговчиси, полковник**

**Ички ишлар идораларида кўплаб хотин-қизлар юрт тинчлиги, осойишталигини таъминлаш, қонунчиликни мустаҳкамлаш, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишдек улуғ ва савобли ишларга ўз ҳиссаларини қўшиб келишмоқда.**

Аёл қайси вазифада, қаерда бўлмасин, ўзининг юксак ва шарафли номини улуғлай олмоғи лозим. Жумладан, ички ишлар идораларида хизмат қилаётган аёлларимиз ҳам ўзларининг юксак маданияти, билими, намунали хулқ-атвори билан бошқаларга ўрнак бўлмоғи лозим.

Ички ишлар вазирлигида жамоат ташкилотлари фаолиятига алоҳида эътибор қаратилади. Жумладан, тизимда Хотин-қизлар кенгаши фаолият кўрсатмоқда.

У ички ишлар идоралари шахсий таркибини миллий қадрият ва анъаналар асосида ватанпарварлик, ижтимоий фаоллик, фуқаролик бурчига ҳамда Ватанга садоқат руҳида тарбиялашда, ахлоқ-одоб ва эстетик маданиятни шакллантиришда яқиндан кўмаклашиб келмоқда.

Халқимиз орасида ҳарбий либос, айниқса, милиция формасидаги хотин-қизларга ҳавас, ишонч юқори. Ҳар йили ИИВ Академиясида тингловчиликка ҳужжат топшираётганлар орасида йигитлар қатори қизларнинг ҳам кўплиги шу ишончдан далолат.

Фурсатдан фойдаланиб республикамизнинг барча аёлларини 8 март — Халқаро хотин-қизлар байрами билан табриклайман.



**Муборак НАЖМИТДИНОВА, Ўзбекистон Республикаси транспорт прокуратурасининг фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини, жамият ва давлат манфаатларини ҳимоя қилиш бўлими прокурори:**

Бугунги кунда ҳуқуқ соҳасининг турли тизимларида меҳнат қилаётган аёлларимиз, опа-сингилларимизни кўриб дил-дилдан фахр-ифтихор ҳиссини туяман. Бизнинг жамиятимизда аёлларга катта ишонч билдирилган, уларга ўз ақл-заковати, ташаббускорлигини намоён қилиши учун кенг имкониятлар яратилган.

Эл-юртимизнинг осойишта ва фаровон ҳаёти йўлида тинмай меҳнат қилмоғимиз эса шу бебаҳо имкониятларни қадрламоқ дегани. Аёлнинг меҳр-муҳаббатга тўла қалби, шижоатли юраги доим бунга қодир!



**Саида ИСРОИЛОВА, Чилонзор тумани давлат солиқ инспекцияси "Солиқ тўловчилардан ҳисобот қабул қилиш ва таҳлил этиш" шўъбасининг бош давлат солиқ инспектори:**

**Оилада аёл зукколиги, доимо тежамлилиги билан хонадонга файз-барака бағишлаб туради. Оилалар тўкислиги билан эса жамият фаровонлиги яралади. Фаровон юртнинг фарзандлари баркамол, иқболи ёруғ бўлажак. Оналарнинг бахтиёрлиги, ҳаёт қувончи ҳам шунда.**

Ҳамкасб аёлларнинг билимдонлиги, ўз ишига жиддий масъулият билан қараб, доимо ибрат кўрсатишида аёлга хос ўша зукколигу тежамлиликни, ҳар бир ишни ҳар томонлама пухта бажаришга интилиш ва ўзига бўлган катта ишончни кўраман.

Аёлнинг кўнглида меҳр, садоқати чексиз, дилида қатъий ирода, мардоналигига қиёс йўқ.

Олам гўзалликлари Сизга азиз онажонлар, опа-сингиллар!



**Олия ТОШМАТОВА, жиноят ишлари бўйича Шайхонтоҳур тумани суди судьяси**

**Истиқлол йилларида аёлларга эътибор тубдан ўзгарди, хотин-қизларнинг жамиятдаги ўрни ва мавқеини мустаҳкамлаш давлат аҳамиятига молик масала даражасига кўтарилди.**

1999 йил Ўзбекистонда "Аёллар йили", деб эълон қилинди. Давлатимиз раҳбарининг бевосита саъй-ҳаракатлари билан хотин-қизларнинг оиладаги давлат ва жамият қурилишидаги ролини кучайтириш, уларнинг ҳуқуқий, ижтимоий, иқтисодий ва маънавий манфаатларини ҳимоя қилиш тизимини янада такомиллаштириш бўйича дастурий ишлар режаси тузилиб, ҳаётга татбиқ этилди. Хусусан, Президентимизнинг **"Ўзбекистон Республикаси давлат ва ижтимоий қурилишда хотин-қизларнинг ролини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"**ги Фармони **"Хотин-қизларга қўшимча имтиёзлар бериш тўғрисида"**ги Қонун ва бошқа ўнлаб фармон ҳамда қарорлар эълон қилинди. Бир сўз билан айтганда, истиқлол йилларида аёлни улуғлаш — оилани, Ватанни, ҳаётни улуғлаш билан тенг мавқени олди. Ўрни келганда, шуни ҳам айтиш жоизки, қонунчилигимизда аёлларнинг ҳуқуқий ҳимояси алоҳида ўрин тутади. Ҳатто ҳаётда адашиб, билиб-билмай жиноят содир этган хотин-қизларга жазо белгилашда ҳам бир қанча енгилликлар мавжуд. **"Амнистия тўғрисида"**ги Фармон ва қарорларда бу масала ўзининг теран ифодасини топган. Бу эса аёлнинг тўғри йўлга тушиб олиши, соғлом турмуш тарзига қайтишида муҳим аҳамият касб этади.

Қаранг, гўзаллик ва нафосат байрами — Хотин-қизлар куни нафаси юртимиз бўйлаб кезиб юрибди. Шу муборак айём барча аёлларга олам-олам қувончу шодлик, бахт-иқбол туҳфа этсин. Юртимиз тинч, осмонимиз мусаффо бўлсин!

# ИМКОНИЯТЛАР ЭШИГИ ОЧИҚ

**Баҳорнинг илк ҳафтасида гўзаллик ва нафосат айёми — Халқаро хотин-қизлар куни кенг нишонланади. Бу, албатта, меҳридарё, оқила аёлларга нисбатан камоли эҳтиромнинг ўзига хос ифодаси, десак янглишмаймиз. Шуни алоҳида эътироф этиш жоизки, истиқлол йилларида аёлни эъзозлаш, уни ҳуқуқий, иқтисодий, ижтимоий муҳофаза қилиш, аёлларнинг жамият ҳаётининг барча жабҳаларини ислоҳ қилишдаги фаол иштирокини таъминлаш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айланди.**



**Мавжуда РАЖАБОВА, Олий Мажлис Сенатининг Қонунчилик ва суд-ҳуқуқ масалалари қўмитаси раиси**

Чунончи, 1999 йил 14 апрелдаги **"Хотин-қизларга қўшимча имтиёзлар тўғрисида"**ги Қонун, Президентимизнинг **"Ўзбекистон Республикасининг давлат ва ижтимоий қурилишида хотин-қизларнинг ролини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"**ги, **"Хотин-қизларнинг ижтимоий муҳофазасини кучайтиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"**ги Фармонлари ва бошқа ҳуқуқий-норматив ҳужжатларнинг амалий ҳаётга татбиқ этилиши ҳам фикримизнинг ёрқин далилидир. Эндиликда ўзбек аёли нафақат маҳоратли уй бекаси ва меҳрибон она, балки мамлакатимиз тараққиётида муҳим ўрин тутувчи, барча жабҳаларда сидқидилдан меҳнат қилаётган илғор ходим эканидан кўнгил сururга тўлади.

Айни чоғда ўз меҳнатидан бахт топишга, эл-юрт корига ярашга интилаётган, у хоҳ тадбиркор бўлсин, хоҳ касаначи ва ёки олима бўлишидан қатъи назар, ҳар бир аёлга мамлакатимизда барча шарт-шароитлар яратилган, жамики имкониятлар эшиги очиқ. Шундай экан, мустақил диёримизнинг ҳар бир оқила ва дилбар аёли бундан-да фаолроқ меҳнат қилсин, эл-юрт ардоғига янада кўпроқ сазовор бўлсин.

Қутлуғ айём шукуҳи кезаётган айни дамларда барча онахонлару опа-сингилларимизга соғлик-саломатлик, бахт-иқбол ва оилавий хотиржамлик тилашдан беҳад мамнунман. Юртимиз тинч, ҳаётимиз янада фаровон бўлсин!

# МУВОЗАНАТ МЕЗОНИ

**Аёлнинг бир қўли бешик тебратса, бир қўли дунёни тебратади. Аёл қалби чексиз бир уммонки, бу уммондан ҳамма нарса, Ватанига, унинг остонаси бўлмиш оиласига, турмуш ўртоғига, фарзандларига, барча яқинларига бўлган чексиз меҳр-муҳаббат, садоқат жой топа олади. Ҳар бир хонадоннинг оройиши ва осойишталиги, рўзғордаги тартиб-интизом, оила анъаналарининг умрбоқийлиги, тинчтотувлиги, файзли ҳаёти аёл кишига боғлиқ. Зеро, уддабурон, режали, тадбиркор аёл оилада ҳам, жамиятда ҳам тўкин-сочинликнинг гаровидир. Балки шу боисдан бўлса керак, аёлни "оила ва жамият тинчлигининг тарозиси", дейдилар.**



**Тамара ТИЛЛАЕВА, Адлия вазирлиги ҳуқуқий тарғибот ва ҳуқуқий таълим бошқармаси бошлиғи ўринбосари**

Ўзбек хотин-қизларининг илм-маърифатли бўлиши, ҳуқуқий-маданий савиясининг юксалиши, фаолликларини намоён этишларига кўмаклашиш ва илмий-ижодий изланишлари, замонавий техника ва технологияларни ўзлаштиришлари учун моддий ва маънавий шарт-шароитларни яратиш, шунингдек, аёлнинг ижтимоий-иқтисодий ҳуқуқлари, уларнинг мулкка эгалик қилиши, ўз мулкини мерос қолдириши, меҳнат қилиши, ишсизликдан ҳимояланиши, дам олиши, соғлиғини сақлаш каби устувор конституциявий ҳуқуқларини таъминлашга жиддий эътибор бериш муҳим аҳамият касб этади.

Республикамиз мустақилликка эришгандан кейин аёллар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш борасидаги дастлабки қадамларидан бири бу БМТнинг "Аёлларга нисбатан камситишнинг ҳар қандай шаклларига барҳам бериш тўғрисида"ги Конвенциянинг 1995 йилда ратификация қилиниши бўлди. Бу билан Ўзбекистон халқаро ҳамжамият олдида мазкур Конвенциянинг ҳамма қоидаларига риоя қилиш мажбуриятини олганлигини алоҳида таъкидлади.

Конститутциямизда хотин-қизларнинг сиёсий ҳуқуқлари аниқ белгиланган бўлиб, Оила кодексида уларнинг оилавий ҳуқуқлари, Фуқаролик кодексида ҳар бир инсоннинг меросга ворислик ва бошқа ҳуқуқлари, Меҳнат кодексида эса хотин-қизлар меҳнатига оид ва бошқа ижтимоий имтиёзлар ёритилган.

Ўзбекистон давлати таълим соҳасида, шунингдек, гендер тенглигида, соғлиқни сақлаш, яъни аёлларга ғамхўрлик қилиш билан боғлиқ масалаларда катта ютуқларга эришди. Бунинг яққол мисоли сифатида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2004 йил 25 майдаги **"Ўзбекистон Хотин-қизлар қўмитаси фаолиятини қўллаб-қувватлаш тўғрисида"**ги Фармони ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги Давлат дастури қабул қилинган.

Давлат миқёсида қабул қилинган ҳужжатлар асосида ҳукумат, вазирликлар ва қўмиталар, жамоат ташкилотлари аёллар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, уларни мамлакатнинг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий жабҳаларида иштирокини таъминлаш борасида муҳим ишлар амалга оширилмоқда.

Бинобарин, сўнгги йилларда Ўзбекистонда оналик ва болаликни муҳофаза қилиш, аёлларнинг жамиятдаги мавқеини ошириш, оилани мустаҳкамлаш ва турли имтиёзлар бериш борасида бир қатор муҳим қонунлар ва бошқа ҳужжатлар қабул қилинганлиги бежиз эмас.

Албатта, аёлларимизнинг эришган ютуқлари билан биргаликда ҳали амалга оширишлари лозим бўлган ишлари, фойдаланилмаган имкониятлари кўп. Аёлларимиз мамлакатимиз аҳолисининг ярмидан ортиғини ташкил қилар экан, биз фарзандларимизда, ёшларимизда Ватанга муҳаббат ва садоқат туйғуларини янада ривожлантириш, мустақиллигимизни мустаҳкамлашимиз, Ватанимиз, халқимиз, ўзимизнинг келажагимиз ўз қўлимизда эканлигига ишонч руҳида тарбияламоғимиз зарур.

Бизнинг халқимиз мустақиллигимизни мустаҳкамлаш, тинчлик, осуда осмон, янгиланиш, фаровон ҳаёт тарафдори. Шундай экан, биз аёллар жамиятимизни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишнинг фаол иштирокчиларига айланишимиз, мамлакатда аёллар тадбиркорлиги, фермерлик ҳаракати тизимини бунёд қилиш, ишлаб чиқариш, илм-фан, техника тараққиётининг олд ўринларини эгаллаш орқали аёллар учун янги иш ўринлари очиш, уларнинг ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан ҳимояланганликларини таъминлаш, уларни бахтли аёл ва она, жамиятнинг тенг ҳуқуқли ва фаол аъзосига айлантириш соҳасидаги барча имкониятларимиз, илм ва куч-ғайратимизни ишга солишимиз лозим.

Фурсатдан фойдаланиб, мамлакатимиз хотин-қизларини байрам билан қутлайман, доимо баҳордек гўзал бўлиб юришларини тилайман.






**Светлана ОРТИҚОВА, Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси бўлим бошлиғи, адлия катта маслаҳатчиси**

**Ўзбекистон Республикаси прокуратура органлари юртимизда амалга оширилаётган ўзгаришларга ўз ҳиссасини қўшиб келмоқда. Фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари, давлат манфаатларини ҳимоя қилишда, жиноятчиликка қарши курашда, жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишда прокуратура органлари ходимларининг роли катта.**

Шуни алоҳида таъкидлаш кераккi, аёл кишининг адолатга чанқоқлиги, ҳуқуқталаблиги ўзгача. Чунки у азалдан жамиятда ўзининг тенгҳуқуқлилиги учун курашиб келган. Ҳуқуқшунос бўлиш учун эса инсонда айнан шу жиҳатлар кўпроқ намоён бўлиши лозим, деб ўйлайман. Бугунги кунда прокуратура органларида кўплаб хотин-қизлар меҳнат қилиб келаяптилар.

Ҳозирда дунёда кўплаб соҳаларда аёллар етакчилик қилишаяпти. Ҳуқуқшунослик соҳаси ҳам бундан мустасно эмас. Оммавий ахборот воситалари, матбуотда аёллар томонидан эришилган ютуқлар тўғрисида хабар топиб қувонасан киши.

Қайд этиш жоизки, прокуратура органларида меҳнат қилаётган опа-сингилларимиз ҳукуматимиз томонидан давлат мукофотлари билан тақдирланмоқда, шунингдек, прокуратура раҳбарияти томонидан рағбатлантирилиб, уларнинг амалга ошираётган ишлари эътироф этилмоқда.

Аёл биринчи ўринда она. Бу сўзнинг замирида инсонни бутун борлиқ билан боғлаб турувчи тушунча гавдаланади. Аёллар ҳам ишга, ҳам уй юмушларига улгуришлари керак. Айнан шу ҳолат аёлда тезкорлик, масъулият ҳиссини шакллантиради.

Мен мактабни битиргач, яқинларим билан келажакдаги режаларим бўйича ўртоқлашганимда, уларнинг аксарияти аёл бошинг билан прокуратурада нима қиласан, деган сўзларни айтишганди. Бироқ, йиллар ўтиб ўшанда шу гапларни айтганлар билан учрашганимда, тўғри йўл тутган экансан, баракалла, деб қўйишади. Бундан мен жуда ғурурланаман. Ёшлигимдан кимгадир бирон нарсани тўғри тушунтиргим, ёрдам бергим келарди. Прокурорлик касбини танлашимга ҳам табиатимдаги айни интилишларим туртки бўлган бўлса, ажаб эмас. Прокурорлик бу касб. Прокурор аёл бўладими, эркакми, ўзлигини йўқотмаса бас.

Ҳукуматимизнинг аёлларга эътибори — эътирофи жуда юқори. Президентимиз томонидан ҳар бир йил маълум бир ном билан аталиб, унга алоҳида эътибор қаратилиши ижобий одат тусига айланди.

Мен фурсатдан фойдаланиб барча Ўзбекистон аёлларини, Хотин-қизлар куни билан чин дилдан муборакбод этаман.



**Муаттар АСҚАРОВА, Ўзбекистон Миллий Телерадиокомпанияси, Ўзбекистон телерадиоканали "Ахборот" муҳарририяти сиёсий шарҳловчиси, "Жасорат" медали соҳибаси**

**Жамият такомили аёлга бўлган муносабат билан белгиланиши бор ҳақиқат. Мамлакатимиз раҳбарининг жамиятда хотин-қизлар ролини ва ижтимоий мақомини ошириш ҳукуматимиз сиёсатининг муҳим йўналишларидан бири эканлигини қайта-қайта таъкидлашлари бежиз эмас.**

Бундан ўн беш, йигирма йиллар наридаги даврдан фарқли ўлароқ бугунги кунда мамлакатимизда оила, аёллар ва болалар бахт-саодати йўлида муҳим тадбирлар амалга оширилмоқда.

Ўтган йиллар мобайнида давлат ва жамият қурилишида хотин-қизлар фаоллигини ошириш, уларнинг ижтимоий муҳофазасини оширишга оид бир қатор Фармон ва қарорлар қабул қилинди. Ҳозирда Олий Мажлис Қуйи палатаси депутатларининг 18 фоизи, Юқори палата аъзоларининг 15 фоизини хотин-қизлар ташкил этади.

Томчида қуёш акс этганидек, менинг журналист-ҳуқуқшунос сифатида шаклланишим ва эл орасида муносиб обрў-эътиборга эга бўлишим ҳам ҳукуматимизнинг мазкур йўлдаги собит сиёсати самараси, деб ўйлайман.

Сўзим сўнгида барча аёлларимизни баҳорнинг илк айёми — Халқаро Хотин-қизлар куни билан муборакбод этаман. Юртимиз равнақи йўлидаги фаолиятларига барака тилайман.

● Адлия ёрдам берди

# БОЛАЛАРНИНГ БУЗИЛГАН ҲУҚУҚЛАРИ ТИКЛАНДИ

## Қонунни писанд қилмаган кимсаларнинг кирдикорлари хусусида



1

**Инсонпарварликнинг энг олий тамойиллари ўз аксини топган Ўзбекистон Республикасининг Конституциясида вояга етмаганларнинг ҳуқуқлари давлат ҳимоясида эканлиги белгилаб қўйилган. Миллий қадриятларимиз манбаларидан бири бўлган Ҳадиси шарифда ҳам "Етимларнинг ҳақига хиёнат қилмоқлик ҳаромдир", дейилади. Лекин минг таассуфлар бўлсинки, жамиятимизда ҳануз имону эътиқодни унутиб, на ахлоқ меъёрлари, на давлат қонунларига риоя этадиган айрим кимсаларнинг учраб туриши ачинарли ҳолдир.**

Таъбир жоиз бўлса, Бекобод шаҳрида яшовчи Богомоловлар оиласининг бошига тушган кўнгилсизликлар 1990 йили оила бошлиғи Ю.Богомоловнинг вафотидан бошланди, дейиш мумкин. 1996 йили эса оила бекаси Марияга нисбатан жиноий иш қўзғатилиб, озодликдан маҳрум этилди. Уларнинг 5 нафар вояга етмаган фарзанди давлат қарамоғига олиниб, болалар уйига жойлаштирилди. Кечагина болаларнинг шодон қийчуви билан тўлиб турган Бекобод шаҳар, 49-уйнинг 41-хонадони ҳувиллаб қолди. Буни қарангки, "Эчкига жон, қассобга ёғ қайғуси" деганларидек, тақдирнинг аччиқ ёзмишидан пароканда бўлган оиланинг кулбаси шаҳар ҳокимлигидаги айрим мутасадди раҳбарларнинг кўзига ёғлиққина ўлжа бўлиб кўринди. Шу йилда шаҳар ҳокимининг (ҳозирда собиқ) ўринбосари А.Қорабоев ҳамда турар жойларни ҳисобга олиш ва тақсимлаш бўлимининг бошлиғи А.Ғоибназаровлар томонидан мазкур хонадон Н.Мирзабоевага ноқонуний берилиб, 1999 йили сохта ҳужжатлар асосида расмийлаштирилди.

2

Ваҳоланки, Ўзбекистон Республикаси Уй-жой кодексининг 52-модда, 2-қисми, 5- 8-бандларида болалар тарбиялаш учун болалар муассасасига топширилганда, шунингдек, фуқаролар қамалганда уларнинг турар-жойлари ушбу муддат ичида тўлиқ сақланиши белгиланган. Мазкур давлат қонунларини билиб-билмасликка олганлариданми ёки бошқа сабаблари ҳам борми билмадик-у, лекин айрим мутасаддиларнинг қинғир ишлари яна бир қинғирликка сабаб бўлди. Чунки, 2001 йилда озодликка чиққан М.Богомоловага бошқа бир фуқаронинг эгалигида бўлган хонадон яна ноқонуний, худди аввалгидек сохта ҳужжатлар асосида яшаш учун берилди. Натижада, болалар уйи ва мактаб-интернат қарамоғидан муддати тугаб чиққан опа-ука Богомоловлар бошпанасиз, кўчада сарсон-саргардон бўлиб қолишди. Сабаби, оналари Мария 2006 йилда вафот этган бўлиб, уларга қарашли уй эса бегона шахслар томонидан эгаллаб олинган эди.

Халқимизда "қинғир ишнинг қийиғи қирқ йилдан кейин ҳам чиқади", деган ҳикмат бор. Тошкент вилояти адлия бошқармаси томонидан Е.Богомолованинг шикоят-аризасини ўрганиш жараёнида бир қатор мутасадди раҳбарларнинг ноқонуний ишлари аниқланди. Жумладан, 1999 йил 17 июнда Н.Мирзабоевага берилган 25-сонли Бекобод шаҳар, 49-уй, 41-

3



# Ҳурматли юртдошлар!

**"Асака" банки 8 март — Халқаро хотин-қизлар байрами ва Наврўз шодиёнаси муносабати билан миллий ва хорижий валюталарда 40 турдаги омонатларни таклиф этади.**

**Жумладан,**

**Миллий валютадаги омонатлар:**

1. "Қалдирғоч" омонатнинг энг кам миқдори — 100.000 сўм. Омонатнинг сақланиш муддати — 3 йил. Омонат бўйича йиллик 29% ҳисобланади.Қўшимча маблағлар қабул қилинади. Омонат бўйича ҳисобланган фоизлар мижознинг истагига кўра, ҳар ойда берилиши мумкин.

2. "Бахтли аёл" омонатнинг энг кам миқдори— 100.000 сўм. Сақланиш муддати — 5 ой. Омонат бўйича йиллик 30% ҳисобланади. Қўшимча маблағлар қабул қилинмайди. Омонат бўйича ҳисобланган фоизлар мижознинг истагига кўра омонат очилган куни берилиши мумкин.

8 март

3. "Тақдим этувчига" омонатининг энг кам миқдори — 250.000 сўм. Сақланиш муддати — 9 ой. Омонат бўйича йиллик 25% ҳисобланади. Ҳисобланган фоизларни 9 ой ўтгандан сўнг олиш мумкин.

Хорижий валютадаги омонатлар:

1. "Тақдим этувчига" омонатининг энг кам миқдори — 500 АҚШ доллари.Сақланиш муддати — 6 ой. Омонат бўйича йиллик 10% ҳисобланади. Ҳисобланган фоизларни 6 ой ўтгандан сўнг олиш мумкин.
2. "Тақдим этувчига" омонатининг энг кам миқдори — 200 евро. Сақланиш муддати — 9 ой. Омонат бўйича йиллик 7% ҳисобланади. Қўшимча маблағлар қабул қилинмайди. Ҳисобланган фоизларни 9 ой ўтгандан сўнг олиш мумкин.



**Ушбу омонат турларини банкнинг барча филиалларида очиш мумкин. ДАТ "Асака" банки сармоянгиз сақланиши ва кўпайишини кафолатлайди.**

**Барча омонатларингиз Фуқароларнинг банклардаги омонатларини кафолатлаш фонди томонидан кафолатланади.**

Мурожаат учун телефонлар: 120-82-92, 120-82-60, 120-81-73.


**Дунё ҳамжамияти диққат марказида турган ва муҳим ижтимоий-сиёсий воқеалар сифатида эътироф этилаётган, ўлим жазосининг бекор қилиниши ва қамоққа олишга санкция бериш ҳуқуқининг судларга ўтказилиши — мамлакатимизнинг ҳуқуқий демократик давлат, адолатли фуқаролик жамиятини барпо этиш йўлида оғишмай илгарилаб бораётганлигини яна бир бор тасдиқлади.**

● Ҳуқуқий ислоҳот

# ДАСТЛАБКИ ТЕРГОВ БОСҚИЧЛАРИ

## тортишув тамойили шаклланмоқда

Қамоққа олишга санкция бериш ҳуқуқининг судларга ўтказилиши суд-ҳуқуқ соҳасида амалга оширилаётган ислоҳотларнинг мантиқий давоми сифатида судгача бўлган тергов босқичида фуқароларнинг ҳуқуқларини ишончли муҳофаза этиш, яъни фуқароларнинг шахсий дахлсизлигини конституциявий кафолатлашга хизмат қилади.

Бундан ташқари, мазкур ўзгариш натижасида жиноят процессининг суриштирув ва дастлабки тергов босқичларида тортишувлик тамойили ҳам шаклланди. Эндиликда судда қамоққа олиш масаласи ҳал этилаётганда айблов томон билан биргаликда ҳимоя томон — гумон қилинувчи, айбланувчи ва ҳимоячи иштирок этади.



Бунинг нечоғли самарали эканини биргина Тошкент вилоятидаги судлар томонидан қамоққа олиш тарзидаги эҳтиёт чорасини қўллаш ҳақида чиқарилган ажримлар мисолида ҳам кўриш мумкин.

Хусусан, жорий йилнинг 7 январь куни жиноят ишлари бўйича Ангрен шаҳар суди Ангрен шаҳар прокурори ўринбосари, ҳимоячи ва айбланувчи иштирокида прокурор томонидан келтирилган қамоққа олиш тарзидаги эҳтиёт чорасини қўллаш ҳақидаги илтимосномани кўриб чиқди. Маълум бўлишича, айбланувчи муқаддам икки маротаба Жиноят кодексининг турли моддалари билан жавобгарликка тортилиб, жазо муддатини ўтаб чиққан шахс бўлсада, ўзига бундан тегишли хулоса чиқариб олмай, яна қасддан жиноятга қўл урган. Айбланаётган жинояти Жиноят кодексининг 15-моддасига асосан ижтимоий хавфлилик даражасига кўра, оғир жиноят эканлиги, дастлабки тергов ва суддан яшириниши, далилларни йўқотишга уриниши мумкинлигини эътиборга олиб, унга нисбатан прокурор томонидан киритилган илтимосномани қаноатлантириб, айбланувчига нисбатан қамоққа олиш тарзидаги эҳтиёт чорасини қўллаган.

Жиноят ишлари бўйича Чирчиқ шаҳар судида шаҳар прокурори томонидан келтирилган қамоққа олиш тарзидаги эҳтиёт чорасини қўллаш ҳақидаги илтимосновма юзасидан ажрим чиқарилди. Прокурор маърузаси, ҳимоячи фикри ва айбланувчининг иш тафсилотига доир мулоҳазаларини тинглаган суд, прокурорнинг айбланувчига нисбатан эҳтиёт чорасини қўллаш ҳақидаги илтимосномасини қаноатлантиришни лозим топди. Чунки, айбланувчи фойдали меҳнат билан шуғулланмасдан қасддан босқинчилик жиноятига қўл урган.

Таъкидлаш керакки, қамоққа олиш тарзидаги эҳтиёт чораси қасддан содир этилган ва Жиноят кодексида уч йилдан ортиқ муддатга озодликдан маҳрум қилиш тариқасидаги жазо кўзда тутилган жиноятларга, шунингдек, эҳтиётсизлик оқибатида содир этилган ва Жиноят кодексида беш йилдан ортиқ муддатга озодликдан маҳрум қилиш жазоси назарда тутилган жиноий қилмишларга доир ишлар бўйича қўлланилади. Агар гумон қилинувчи, айбланувчи тергов ва суддан яширинган, ушлаб турилган гумон қилинувчининг шахси аниқланмаган, муқаддам қўлланилган эҳтиёт чораси айбланувчи томонидан бузилган, ушлаб турилган гумон қилинувчи, айбланувчи Ўзбекистон Республикасида доимий яшаш жойига эга бўлмаган, шунингдек, жиноят қамоқ ёки озодликдан маҳрум қилиш тариқасидаги жазони ўташ даврида содир этилган ҳолларда юқоридаги меъёрлар истисно қилиниб, гумон қилинувчи, айбланувчига нисбатан қамоққа олиш тарзидаги эҳтиёт чораси қўлланилиши мумкин.

Мухтасар қилиб айтганда, инсон ва унинг қадр-қиммати улуғланадиган юртимизда инсонпарварлик мезонларининг устуворлиги аждодларимиздан мерос бўлиб келаётган қадрият ва анъаналаримизнинг ажралмас қисмидир. Бундай инсонпарварлик ва адолат мезонлари билан уйғунлашган суд-ҳуқуқ ислоҳотлари эса, албатта, юртимиз равнақи учун хизмат қилади.

**Салоҳиддин САХАДДИНОВ,**
**жиноят ишлари бўйича**
**Тошкент вилоят суди раиси**

хонадонга эгалик ҳуқуқини берувчи ордерга асос қилиб олинган шаҳар ҳокимининг 1999 йил 17 июндаги 312-сонли қарори ҳамда 2002 йил 28 августда М.Богомоловага эгалик ҳуқуқини берувчи далолатномага асос бўлган 366-сонли қарорлари сохталаштирилганлиги маълум бўлди.

Шунга кўра, вилоят адлия бошқармасининг эгалик ҳуқуқини берувчи сохта далолатномани бекор қилиш ҳамда марҳум Богомоловларга тегишли бўлган хонадонни, уларнинг фарзандларига бириктириб берилишини сўраб, фуқаролик ишлари бўйича Бекобод туманлараро судига киритган даъво аризаси қаноатлантирилди. Суднинг 2008 йил 24 январдаги қарори бўйича ҳақ жойига қарор топди. Болалар ўзларига қонуний равишда тегишли бўлган уйга эга бўлдилар. Албатта, ҳар қандай жиноятга нисбатан жазо муқаррардир.

Ўзбекистон Республикаси **"Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида**"ги Қонуннинг 56-моддасида ҳамда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1995 йил 18 февралдаги 59-сонли қарори билан тасдиқланган "Меҳрибонлик уйи тўғрисида"ги Низомнинг 27,30 ва 33-бандларига кўра, давлат таъминотида турган чин етим ва ота-онасининг биридан ажралган болаларга нафақа пули тўланиш тартиби белгиланган.

Юқорида айтиб ўтганимиздек, 1996 йили она М.Богомолова жиноий жазога тортилиб, озодликдан маҳ-

**4**

рум этилгач, унинг 5 нафар вояга етмаган фарзанди Бўка туманидаги, 15-сонли Меҳрибонлик уйига жойлаштирилди. Кейинчалик, Тошкент вилояти халқ таълими бошқармасининг 2000 йил 31 январдаги 7-сонли йўлланмасига асосан, улардан уч нафари Оққўрғон туманидаги 78-сонли махсус мактаб-интернатига ўтказилди. Ҳар иккала муассаса раҳбариятининг ўз хизмат вазифаларига масъулиятсизлиги оқибатида, Богомоловлар зарарига яна бир қатор қонунбузилиш ҳолатлари содир этилди. Яъни Бўка туманидаги 15-сонли Меҳрибонлик уйи раҳбариятининг айби билан Богомолова Екатеринага 1996 йил 1 июндан 1999 йил 1 ноябргача, Елизаветага 1996 йил 1 июндан 2002 йил 1 мартгача, Анна, Михаил ва Анастасияларга 1996 йил 1 июндан 2000 йил февралгача ҳамда Оққўрғон туманидаги 78-сонли махсус мактаб-интернати раҳбариятининг айби билан Аннага 2000 йил 1 февралдан 2002 йил 1 июнгача, Михаил ва Анастасияларга 2000 йил 1 февралдан 2004 йил 1 июлгача, болалар 16 ёшга тўлгунга қадар ҳар бирига энг кам иш ҳақининг 50 фоизи миқдорида нафақа пуллари махсус ҳисоб рақамларига ўтказилмади. Шунингдек, Бўка тумани 15-сонли Меҳрибонлик уйи ва Оққўрғон тумани 78-сонли махсус мактаб-интернати маъмурияти амалдаги Қонун ва Низом талабларини қўпол равишда бузиб, болаларни қабул қилишда ота-онасидан қолган мол-мулк

**5**

рўйхатини ва унинг қаерда жойлашганлиги, сақлаш учун қандай чоралар кўрилганлиги ҳақида ҳужжатларни талаб қилиб олмаганлиги, бир сўз билан айтганда, муассасадаги болалар тақдирига бефарқлик Богомоловларнинг уй-жойсиз қийналиб, сарсон бўлишига сабаб бўлди десак, янглишмаймиз.

Албатта, адлия бошқармасининг ёрдами билан болаларнинг нафақа пуллари ҳам ундирилди.

Кези келганда айтиб ўтиш жоизки, вилоят адлия бошқармасида фуқаролардан келган барча шикоят-аризалар алоҳида эътиборга олиниб, лозим ҳолларда амалий ёрдамлар кўрсатилади. Шулар қаторида, Тошкент туманида яшовчи Г. Гайфуллинанинг аризаси асосида ҳам ота-онасидан етим қолган, 2 нафар вояга етмаган З. Сагитова ва Д. Сагитовларга васийлик белгиланди. Уларнинг ҳар бирига энг кам иш ҳақининг уч баробари миқдорида ойлик нафақа , тайинланиб, банкда 600 минг сўмга ҳисоб-рақами очилди.

Вилоят адлия бошқармасининг ўтган бир йиллик фаолиятига назар соладиган бўлсак, бу каби мисолларни кўплаб келтириш мумкин. Лекин асосий гап бу эмас. Юртбошимизнинг «Савоб ишни ҳар ким қилиши керак, савоб ишни ҳар куни қилиш керак» деганларидан мақсад эзгуликнинг моҳиятидадир.

**Мирзоҳид ТОЖИЕВ,**
**Тошкент вилояти адлия бошқармаси бўлим бошлиғи,**
**Фарида ҚОРАҚУЛОВА,**
**"Инсон ва қонун" мухбири**

**6**

# Тизим тадбирлари

## ТАДБИР БЎЛИБ ЎТДИ

**Сирдарё вилояти адлия бошқармасининг ташаббуси билан Ширин шаҳар энергетика касб-ҳунар коллежида адлия идораларидан рўйхатдан ўтган ёшлар масалалари билан шуғулланувчи нодавлат-нотижорат ташкилотларнинг вазифалари мавзуида илмий-амалий семинар ўтказилди.**

Семинарда мазкур йилда адлия органлари олдига қўйилган долзарб вазифаларга алоҳида эътибор қаратилди.

**Абдуғаффор ОМОНБОЕВ**

## ЁШЛАР ГИЁҲВАНДЛИККА ҚАРШИ

**Президентимиз томонидан 2008 йил "Ёшлар йили" деб эълон қилинганлиги муносабати билан таълим муассасаларида талаба ва ўқувчилар тарбияси билан боғлиқ тарғибот-ташвиқот ишлари жадал тарзда ўтказиб келинмоқда.**

Шундай тадбирлардан бири Тошкент юридик коллежида ташкиллаштирилди.

"Гиёҳвандлик — умр заволи" мавзуидаги давра суҳбатида вояга етмаганлар билан олиб борилаётган ишлар, гиёҳвандлик дунёни ларзага солаётганлиги, ёшлар билиб-билмай бу йўлга кириб қолаётганликлари, гиёҳвандликнинг олдини олиш ва унга қарши курашишда барча ҳушёр бўлиши кераклиги алоҳида таъкидланди.

Давра суҳбати якунида иштирокчилар билан савол-жавоблар ўтказилди ва ўқувчилар томонидан тайёрланган саҳна кўринишлари намойиш этилди.

**Абдушукур ЖАМИРЗАЕВ,**
**Тошкент юридик коллежи ўқитувчиси**

## ТАДБИРКОРЛАР ҚОНУН ҲИМОЯСИДА

**Бухоро вилояти адлия бошқармаси томонидан Бухоро тумани ҳокимлигида "Назорат қилувчи органлар томонидан ўтказиладиган тадбиркорлик субъектлари — юридик шахслар фаолиятини текширишларни мувофиқлаштириш тартиби тўғрисида"ги Низомнинг мазмун-моҳиятини тарғиб қилиш мақсадида ўқув-семинар машғулоти ўтказилди.**

Тадбир иштирокчилари республикамизда амалга оширилаётган янгиланишларнинг, туб ижтимоий-иқтисодий ислоҳотларнинг пировард мақсади — кучли фуқаролик жамиятини шакллантириш, инсон ва унинг ҳуқуқларини олий қадрият сифатида қарор топтириш, жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни ошириш, қабул қилинаётган барча қонун ҳужжатларини жойларга, айниқса, вилоятнинг энг чекка ҳудудларига ва уларнинг бевосита ижрочиларига етиб боришини таъминлаш лозимлигини таъкидлаб, Низомнинг мазмун-моҳияти тўғрисида муфассал фикр юритдилар.

**Шаҳлола МАЛИКОВА,**
**Бухоро вилояти адлия бошқармаси ходими**



Баҳор ва гўзаллик

*Бахтиёр АКРАМОВ олган сурат*

**Инсоният яралибдики, оналарнинг этаги тавоф қилинади, ҳаёт яралибдики, аёл тенгсиз бахт ва меҳр манбаи сифатида улуғланади.**

***Мустақиллик йилларида аёлни улуғлаш, уни ҳимоя этиш борасида қабул қилинган барча муҳим ҳужжатларда аёлларнинг ҳуқуқлари инсоний мезонларда бўлиши, аёл барча қатори меҳнат ва ижод қилиши, ижтимоий ҳаётда ва давлат қурилишида иштирок этиши, оилавий муносабатларда тенг ҳуқуқли экани янада ёрқин акс этди.***

# ДУНЁНИ ЁРИТГАН НУР



**Гулжамол АСҚАРОВА, Ўзбекистон Хотин-қизлар қўмитаси етакчи мутахассиси, Зулфия номидаги Давлат мукофоти соҳибаси**

Ўзбекистонда аёлларга жаҳон давлатларининг ҳеч бирида кузатилмаган эҳтиром ва ҳурмат кўрсатилди. Аёл зотини улуғлаш учун унинг номига йиллар аталди, аёл номида мукофот жорий этилди.

Олий Мажлиснинг Қонунчилик палатасига бўлиб ўтган сайловлар якунларига кўра, 120 нафар депутатнинг 18 фоизи, Сенат аъзоларининг 15 фоизини ҳам аёллар ташкил этди. Ўтган сайловларга нисбатан парламентда хотин-қизларнинг иштироки 10 фоизга кўпайди. Вилоят кенгашларига 100 нафар, туман кенгашларига 698 нафар, шаҳар кенгашларига 165 нафар аёл сайланган. Сайловларга номзодлар кўрсатиш жараёнида номзодларнинг 30 фоизини хотин-қизлар ташкил этганининг ўзи ҳам аёлларнинг сиёсий фаолликлари юксалганидан, уларнинг ҳуқуқий ва ижтимоий муҳофазаси кучайганлигидан дарак беради.

Маълумки, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1999 йил 10 июнда **"Зулфия номидаги Давлат мукофотини таъсис этиш бўйича таклифларни қўллаб-қувватлаш тўғриси"**даги Фармони эълон қилинган эди. Зулфия мукофоти мазмун-моҳияти билан Президентимиз ва ҳукуматимиз томонидан ёшларга, уларнинг келажагига кўрсатилган катта эътибор ва ғамхўрлик тимсолига айланди. Мана, 8 йилдирки, мазкур мукофот юртимизнинг ноёб истеъдодли, иқтидорли қизларига бериб келинмоқда. Шу вақт мобайнида ушбу мукофотга сазовор бўлганлар сони 112 нафарга етди. Бу қизларни халқимиз бугун "зулфиячи қизлар" деб улуғламоқда. Ёш бўлишига қарамасдан давлат мукофотига сазовор бўлаётган, миллатнинг оналари бўлиб эъзозланмиш Нодирабегим, Увайсий, Зебунисобегим, Гулбаданбегим, Қурбонжон Додҳоларнинг издошлари, салафлари бўлиб бораётган қизларимизни шу мамлакат ва эл равнақи йўлида хизмат қилишлари ғоятда қувончли ҳолдир.

Аёлнинг оиладаги ўрнини мустаҳкамлаш, унинг оилага ҳаёт бағишлаб турувчи кучлардан бири эканини англатиш, уни фаолликка ундаш борасида Ўзбекистон Хотин-қизлар қўмитаси ва жойлардаги хотин-қизлар қўмиталарида ҳам қизғин фаолият олиб борилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг **"Ўзбекистон Хотин-қизлар Қўмитаси фаолиятини қўллаб-қувватлаш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"**ги Фармонида аёлларнинг ижтимоий сиёсий фаоллигини ошириш, унинг соғлигини сақлаш, маърифий савиясини юксалтириш, иш билан банд этиш каби вазифаларни амалга ошириш орқали юртимизда оилаларнинг фаровонлиги ва тинчлигини таъминлаш ғояси илгари сурилган. Аёлларнинг тадбиркорлик фаолиятини қўллаш, уларга тадбиркорлик ишларини ривожлантириш учун имтиёзли маблағлар ажратиш каби масалалар давлат сиёсати даражасида ҳал этилиши ҳам оилаларнинг бахту саодати учун хизмат қилади.

Юртбошимиз "Худонинг марҳамати билан оилани оила қиладиган зот-аёлдир" деган ибратли сўзни айтганлар. Оила маънавий муҳитининг соғломлиги, иқтисодий жиҳатининг мустаҳкамлиги ва бошқа жиҳатлари аёлга бориб туташади.

Чегараларда сергак турган мард ва ботир ўғлонларни оналарнинг дуолари, аёлнинг меҳри ва садоқатли муҳаббати омон асрайди. Ниятим, юртимизнинг бир-биридан фозила аёллари шу мамлакат камоли учун комил фарзандларни тарбиялайверсинлар.

Яратганнинг қудрати билан буюкларни дунёга берган, даҳоларни, соҳибқирон саркардаларни вояга етказаётган оналарнинг олдида ҳар биримиз таъзимдамиз.

## Чақмоқтош

# РЕНЕ ДЕКАРТ (1596-1650)



**Фарангистонлик файласуф, риёзатчи, тиббиётшунос олим ва услубий назариётчи Рене Декарт Турен музофотининг Лаэ шаҳарчасида дворян оиласида дунёга келди.**

**1606 йилнинг баҳорида отаси Декартни Ла-Флешдаги диний коллежга ўқишга жўнатади.**

**1619 йилдан бошлаб Декарт фалсафа билан жиддий шуғулланишга киришади.**

Рене Декарт табиатан қизиққон бўлса-да, баҳс ва тортишувлар чоғида доимо ўзини муносиб тута билган. У биринчи бўлиб "Эфир" атамасини ва у ҳақидаги ғояни фан оламига олиб кирди. "Фикрлаяпман, демак, мавжудман", — деган нақлни ҳам Декарт ўйлаб топган. Шунингдек, у биринчи бўлиб, камалакнинг пайдо бўлиш сабаблари ва унинг табиатини тушунтириб берди.

Бизгача Рене Декартнинг қуйидаги асарлари етиб келган: **"Ақлни бошқариш қоидалари"**, **"Коинот ёки олам ҳақида мушоҳадалар"**, **"Фалсафа ибтидоси"**, **"Услуб ҳақида мушоҳадалар"**, **"Ҳандаса"** ва бошқалар.

***

***Умид — кўнгилдаги истакнинг рўёбга чиқишига ўзини ишонтирмоқ, демак. Қўрқув эса орзу-истаклар рўёбга чиқмаслигига ишонтирувчи руҳий мойилликдир.***

***

*Ўзликни англашдан кўра сермаҳсулроқ машғулот йўқдир.*

***

***Қадр-қимматини билган одам бошқаларнинг ўзидан кўра ақллироқ, илмлироқ ва гўзалроқ бўлишидан чўчимайди. У аслида бошқалардан устунроқ бўлса ҳам ҳеч қачон ўзини юқори тутмайди.***

***

*Кучли ва олижаноб одамларнинг кайфияти хотиржамлик онларида ҳам, кулфатга рўпара бўлганда ҳам ўзгармайди.*

***

***Сен тақдири азални эмас, аввало ўзингни енгишга ҳаракат қил. Дунёни тартибга солишга уринма, энг аввал ўз истакларингни бошқара бил.***

***

*Донишмандлик нафақат амалий мулоҳазакорлик, балки инсон англашга қодир бўлган илмларни мукаммал эгаллаш демакдир.*

**Саида ЖЎРАЕВА тайёрлади**

# ДИҚҚАТ, ТАНЛОВ

***Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги "Энг яхши ҳуқуқий мақола" кўрик-танловини эълон қилади***

*Ўзбекистон Республикасининг "Жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш миллий дастури" ижросини таъминлаш, аҳолининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини, шунингдек, ҳуқуқий тарғибот самарадорлигини ошириш борасида барча давлат органлари, жамоат ташкилотлари, ҳуқуқшунос ва журналистлар ҳамда кенг жамоатчилик вакиллари фаолиятини мувофиқлаштириш мақсадида Адлия вазирлиги* ***"Энг яхши ҳуқуқий мақола"*** *кўрик-танловини эълон қилади.*

*Танловга 2007 йилнинг 1 декабридан 2008 йил 1 декабрига қадар матбуот нашрларида чоп этилган, аҳолининг ҳуқуқий саводхонлигини оширишга, норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тушунтиришга, жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтиришга йўналтирилган мақолалар қабул қилинади.*

*Чоп этилган мақолалар Адлия вазирлигининг Ҳуқуқий тарғибот ва ҳуқуқий таълим бошқармасига юборилиши сўралади.*

*Мақолалар билан бирга муаллифнинг исм-шарифи, иш жойи ва лавозими, телефон рақами ҳақидаги маълумотлар ҳамда паспорт нусхаси тақдим қилиниши лозим бўлади.*

*Танлов Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси куни арафасида якунланади ва ғолиблар матбуотда эълон қилинади.*

*Танлов ғолиблари Адлия вазирлигининг I, II ва III даражали дипломлари ҳамда пул мукофотлари билан тақдирланади.*

**Мурожаат учун телефонлар: 233-50-17, 233-12-91.**
**Манзил: 100047, Тошкент шаҳри, Сайилгоҳ кўчаси, 5-уй, Адлия вазирлиги.**


UZBEKISTAN airways



*Саёҳатингизни «Ўзбекистон ҳаво йўллари» билан бирга режалаштиринг!*

**2008 йил 7 мартдан жума кунлари**
**Тошкент - ДУБАЙ - Тошкент**
**йўналиши бўйича янги қатнови очилади**

**Тошкент - СЕУЛ - Тошкент йўналиши бўйича:**
- қатновларнинг бажарилиши ҳафтасига уч мартага етказилди
- бепул багаж олиб кетиш меъёри оширилди:

биринчи класс -60 кг
бизнес класс -45 кг
иқтисодий класс -35 кг,

шунингдек, "Uz Air Plus" дастури қатнашчилари учун янги шартлар киритилди.

Маълумотлар учун телефонлар: (998 71) 140 - 02 00. www. uzairways. com

*«Ўзбекистон ҳаво йўллари» - хавфсизлик, барқарорлик, қулайлик!»*


## ЭЪЛОН!

**Жиззах вилояти адлия бошқармаси Арнасой ва Пахтакор туман давлат нотариал идоралари нотариуси лавозимига**

## ТАНЛОВ ЭЪЛОН ҚИЛАДИ!

***Танловда нотариал фаолият билан шуғулланиш ҳуқуқини берувчи лицензияга эга бўлган Ўзбекистон Республикаси фуқаролари иштирок этишлари мумкин.***

**Танловда қатнашиш учун қуйидаги ҳужжатлар тақдим этилиши лозим:**

*1. Комиссия номига ариза;*
*2. Паспорт нусхаси;*
*3. Белгиланган шаклда тўлдирилган шахсий варақа;*
*4. Меҳнат дафтарчасининг нотариал тасдиқланган нусхаси;*
*5. Нотариал фаолият билан шуғулланиш ҳуқуқини берувчи лицензиянинг нотариал тасдиқланган нусхаси;*
*6. Охирги иш жойидан берилган меҳнат фаолияти тўғрисидаги тавсифнома.*

*Талабгор ўзининг касбий тайёргарлигини таърифловчи бошқа ҳужжатларни ёхуд уларнинг нотариал тасдиқланган нусхасини тақдим этиши мумкин.*

**Танловда қатнашишни хоҳловчи фуқаролар эълон чиққан кундан бошлаб, бир ой давомида вилоят адлия бошқармасига мурожаат этишлари лозим.**

**Жиззах вилояти адлия бошқармаси телефонлари: (8372) 226-35-81, 226-39-22**

**Наманган вилоят адлия бошқармаси ҳузуридаги нотариат бўйича малака комиссиясининг 2008 йил 16 февралдаги йиғилиш қарорига асосан Косонсой туманида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ҳайдаров Ҳайдарали Акпаралиевичга Наманган вилоят адлия бошқармаси томонидан 2001 йил 4 август куни берилган NA 000051 сонли нотариал фаолият билан шуғулланиш ҳуқуқини берувчи лицензия бекор қилинади.**

**Навоий вилояти адлия бошқармаси томонидан 2002 йил 1 майда берилган NV 000080 рақамли Зарафшон шаҳар ҳуқуқий маслаҳатхонаси адвокати Раджапов Алимжан Авлиякуловичга тегишли бўлган адвокатлик фаолияти билан шуғулланиш ҳуқуқини берувчи лицензияси бекор қилинганлиги маълум қилинмоқда.**

**МУЛЗАМ БЎЛГАН "УДДАБУРОН"ЛАР**

# ХАШАК ТАГИДАГИ ТИРКАМА

## Тўғри йўл қолиб эгри йўлдан юрган тракторчи қилмиши ҳақида

**Пешку туманидаги "Валфажир" қишлоғида истиқомат қилувчи Сирож Турдиев яхши ниятлар билан "Беҳруз Дилшод" фермер хўжалиги тузиб, унга раҳбарлик қила бошлаган эди. Хўжаликнинг ҳисоб-китоб ишларини бажаришни ҳамқишлоғи, ўрта маълумотли Завқиддин Очиловга топширди. "Завқиддин, бу ишга — бошқа кишини олишим ҳам мумкин эди. Лекин, сени яхши билганим учун шундай қилдим. Ҳали ёшсан, ўзингни ўнглаб олишингда ёрдамимни аямайман. Фақат иккаламиз ҳар бир ишда бир ёқадан бош чиқарсак бўлгани, ука!" — деди бошлиқ.**

### • Қонун чиғириғи

Шундай қилиб, "Беҳруз Дилшод" ишлари юришиб кетди. Лекин... Сирожнинг кўнглида қинғир йўллар билан бойлик орттириш фикри туғилиб қолди. Аввалига у бироз ҳадиксиради. Кейин ким билиб ўтирибди, ҳисобчи ўзимнинг одамим, оғзига маҳкам йигит, дея кўнглини тўқ қилди.

Хуллас, "Беҳруз Дилшод" фермер хўжалигининг фаолияти бўйича туман ДСИга топширилган ҳисоботларда 2006 йилдаги солиққа тортиладиган базаси катта миқдорда камайтириб кўрсатилди. Бундан ташқари, жами 15733,2 минг сўмлик жуда кўп миқдордаги солиқ ва бошқа мажбурий тўловларни тўлашмади.

С.Турдиев ва З.Очиловлар бу ҳаракатлари билан Жиноят кодексининг 184-моддаси, 3-қисмида кўрсатилган жиноятни содир этганликда айбландилар.

Суд мажлисида С.Турдиев ва З.Очиловлар ўз айбларига иқрорликларини, қилмишларидан чин кўнгилдан пушаймонликларини билдиришди.

Суд мазкур жиноят ишига доир барча ҳужжатларни ўрганиб чиқиб, ажрим қилди.

С.Турдиев ва З.Очиловларнинг жиноят иши Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг "Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 15 йиллиги муносабати билан амнистия тўғрисида"ги Қарорининг 26-бандига асосан ҳаракатдан тўхтатилди.

Халқимиз азалдан кечиримли. Адашганни тўғри йўлга солмоқ ҳам ота-боболаримиздан бизга мерос бўлиб қолган савобли иш. Қилмишидан пушаймон бўлиб, ўз хатосини англаган кишига бағрикенглик кўрсатиш улар учун ҳаёт сабоғи бўлса, ажаб эмас.

**Шуҳрат ҲИКМАТОВ, Пешку туман прокуратураси терговчиси, Лолахон МАНСУРОВА, журналист**

**Инкобод маҳалласида яшовчи Абдусалом Азизов Бойсун туманида геосейсмик қидирув ишлари олиб бораётган Эроннинг "ОЕОС" ширкатига бир амаллаб тракторчи бўлиб ишга кирди.**

Бандихон ҳудудида қидирув ишлари олиб бораётган "ОЕОС" ширкати блокига қарашли тиркамали компрессор бузилиб қолган эди. Корхонанинг масъул ходими эронлик Айпилло ўз қўл остида ишлаб келаётган Абдусалом Азизовни ёнига чақириб, топшириқ берди:

— Ука, компрессорли тиркамани тумандаги ишхонамиз гаражига олиб бориб жойлаштиринг. Сўнг ишни давом эттираверасиз, — деди у.

Абдусаломбой бошлиғининг топшириғи билан компрессорни тракторга тиркаб, Бандихондан Бойсун томон йўл олди. Ўзи истиқомат қилаётган Инкобод қишлоғидан ўтаверишда кўнгил деган душманга айланди. "Яқин орада эронликлар бу ерда ишни тугатиб, кўчиб кетишади. Отамнинг уйига олиб бориб, яшириб қўйсам, ким ҳам билиб ўтирибди", деган хаёлда тракторни тўғри йўлдан эгри йўл томон бурди.

1 миллион 102 минг сўмлик тиркама ва 17 миллион 892 минг сўмлик "МТСО-1" русумли компрессорни отаси Б.Азизовнинг ҳовлисига олиб бориб, устига хашак босиб қўйди.

Орадан бир неча ой ўтгач, ширкатга қарашли техника воситаларининг тафтиши бошланди. Ана шунда қарашсаки, компрессор ва икки чархли тиркама етишмайди. Эронлик мутахассислар жамоани бир жойга йиғиб мажлис ўтказишди. Ким компрессорни олган бўлса, жойига келтириб қўйишини илтимос қилишди. Аммо, йиғилишда иштирок этган Абдусалом ҳеч нарсадан хабари йўқдек бамайлихотир ўтираверди...

Бу хабар туман Ички ишлар бўлимига етиб келди. Қидирув ишлари бошланди. Сал фурсатдан сўнг хашак тагига яшириб қўйилган компрессор ва икки чархли тиркама топилди. Жиноят ишлари бўйича Бойсун тумани суди А.Азизовдан энг кам иш ҳақининг 25 фоизи миқдоридаги жаримани давлат фойдасига ундирган ҳолда икки йил ахлоқ тузатиш ишлари жазоси билан "сийлади".

**Акмал ЮЛДОШЕВ, жиноят ишлари бўйича Бойсун тумани суди раиси**

**Одатда, серфарзанд оила соҳибига одамларнинг ишончи кўпроқ бўлади. Қизириқ туманида яшовчи Абдувоҳид Қиличевга ҳам ишлаб пул топаман деб ўйлаган йигитлар, балки шу боис ишонгандир.**

### • Эҳтиёт бўлинг, фирибгар!

# АЛДОВ

## ёхуд ўзга юртда "жаннат"ни ваъда қилган кимса қилмиши хусусида

— Йигитлар, Остона шаҳри яқинида Эдик исмли бир дўстим бор. Ўтган гал борганимда, у менга ишлайдиган йигитлардан олиб кел, яхшигина даромад олишади, деб айтганди. Шароитлари билан танишдим. Уч маҳал бепул иссиқ овқат беради, ётоқхона бор. Яхши ишласаларинг, ойига 300 "кўк"идан ҳақ оласизлар, — деди у қишлоқдошларига. — Ҳаммангизни ўзим ишга жойлаштириб қайтаман. Фақат ҳақини берасизлар.

Туманда яшовчи А.Ҳайдаров, С.Жумаев, Э.Минлиқулов, Б.Хўжақулов, Т.Абдуллаев, Э.Шодиев каби ўн тўрт нафар йигитни яширин йўллар билан Остона шаҳрига олиб келган А.Қиличев уларни ўзини "Эдик" деб таништирган иш берувчининг қўлига топширди.

— Энди паспортларингизни Эдикка беринглар. У ҳужжатларни расмийлаштириб қўяди, — дея ҳужжатларни йиғиштириб, ҳамтовоғига тутқазди.

Алдов тузоғига илинганлар эса бегона юртда, нотаниш кимсалар қўлида қолиб кетаверди. Иш шароити оғир, ётоқхона совуқлиги, бунинг устига тонг саҳардан кеч оқшомгача қурилишдаги оғир ишларни бажариб юрганлар икки ойга базўр чидашди. Сўнг бир нечаси шароитга кўниколмагани сабабли юртига қайтишга жазм этиб, Эдикдан ўз ҳақларини сўради.

— Нима деяпсизлар, мен сизларга тегишли иш ҳақини тўлиғича Абдувоҳидга бериб юборганман. Қаерга борсанг, боравер!

Шундан сўнг уч-тўрт нафар йигит чегара назоратини айланиб ўтиб, қишлоққа қайтиб келишди. Фирибгар А.Қиличевнинг алдовига учганлар ота-оналарига воқеани сўзлаб беришди. Бундан хабардор бўлганлар А.Қиличевнинг хонадонига келиб, туғишган жигарларини топиб беришини талаб қилишди. Бу ҳақда тегишли идораларга аризалар ёзишди. Ниҳоят, Абдувоҳид Остонага бориб қолган йигитларни олиб келди. Жиноят ишлари бўйича Қизириқ тумани суди фирибгарлик йўли билан текин пул топишни эп билган А.Қиличевга содир этган жиноий иши юзасидан тегишли жазо тайинлади. Бундан норози бўлган А.Қиличев жазони енгиллаштиришни сўраб жиноят ишлари бўйича вилоят суди апелляция инстанциясига шикоят қилган эди. Жиноят ишлари бўйича вилоят суди апелляция инстанциясининг судлов ҳайъати Абдувоҳид Қиличевга нисбатан жиноят ишлари бўйича Қизириқ тумани суди чиқарган 2007 йил 7 декабрдаги ҳукмни ўзгартиришсиз қолдириш тўғрисида ажрим чиқарди.

Шу ўринда бир мулоҳаза кўнгилдан кечади. Ҳар бир киши ўз ҳаёти ва тақдирига бефарқ қараб, уни дуч келган кимсага ишониб юбоваравермаса, фирибгарлар ҳам текин даромад топиб кетавермайди. Муҳими, қонундан четга чиқмаган киши юқоридаги каби алданиб қолмаслиги аниқ, шундай эмасми?!

**Бобир МЎИНОВ, жиноят ишлари бўйича Сурхондарё вилояти суди судьяси,**
**Собир ЁДИКОВ, "Инсон ва қонун" мухбири**




**ИНСОН ва ҚОНУН**

МУАССИС: ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ АДЛИЯ ВАЗИРЛИГИ

1996 йилнинг январидан нашр этилади

2007 йил 3 январда Ўзбекистон Матбуот ва Ахборот агентлигида 0081-рақам билан рўйхатга олинган

Бош муҳаррир: Кўчқор НОРҚОБИЛ

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:
Аҳмедов Абдуҳалим Абдураимович
Мустафаев Бўритош Мустафаевич
Ражабова Мавжуда Абдуллаевна
Махмудов Лазизжон Мирзаевич
Рахмонов Абдукамол Шодиевич
Маматов Шоди Суюнович
Матрасулов Давлатназар Раҳимберганович
Саидов Шокир Камолович
Ҳамроев Ислом Ҳамзаевич

Навбатчи: Алимурод ТОЖИЕВ

Саҳифаловчи-дизайнер: Фарҳод ХЎЖАНАЗАРОВ

Индекс: 646882

«ИНСОН ВА ҚОНУН» ҳуқуқий газетаси таҳририяти компьютер базасида терилди ва саҳифаланди. А-2 бичимда, 2 босма табоқ ҳажмда, офсет усулида «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси босмахонасида босилди.
Корхона манзили: Тошкент шаҳри, Буюк Турон кўчаси 41-уй.
Буюртма Г-216. Тиражи — 12988. [t] — тижорат мақола.
Босишга топшириш вақти — 21.00. Топширилди — 20.00

МАНЗИЛИМИЗ: 100047, Тошкент ш. Сайилгоҳ кўчаси-5.
Тел: 233-84-50, Факс: 233-95-31.

1 2 3 4 6 7 8